

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XODJAYEVA ZARINA FAXRIDDIN QIZI**

**BUXORO VILOYATI DENGIZKO‘L ZOVURIDAGI  
FITOPLANKTONLARNI ANIQLASH, KO‘PAYTIRISH VA  
BALIQCHILIKDA QO‘LLASH BIOTEXNOLOGIYASI**

**03.00.12 – Biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALFASA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on biological sciences**

**Xodjayeva Zarina Faxriddin qizi**

Buxoro viloyati Dengizko'1 zovuridagi fitoplanktonlarni aniqlash, ko'paytirish va baliqchilikda qo'llash biotexnologiyasi .....5

**Xodjaeva Zarina Faxriddin qizi**

Биотехнология определения, размножения и применения в рыбководстве фитопланктонов Денгизкульского коллектора Бухарской области .....21

**Khodjaeva Zarina Fakhriddin qizi**

Biotechnology of determination, reproduction and application in fish farming of phytoplanktons of Dengizkul collector of Bukhara region .....41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XODJAYEVA ZARINA FAXRIDDIN QIZI**

**BUXORO VILOYATI DENGIZKO'L ZOVURIDAGI  
FITOPLANKTONLARNI ANIQLASH, KO'PAYTIRISH VA  
BALIQCHILIKDA QO'LLASH BIOTEXNOLOGIYASI**

**03.00.12 – Biotexnologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALFASA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/B1135 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya aftoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rashidov Negmurod Elmurodovich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Toxirov Baxtiyor Baxshilloyevich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Jo‘rayev Umid Anvarovich**  
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy, Buxoro davlat universiteti binosi Blok №1, 2-qavat konferensiyalar zali. Tel: (+99865) 221-29-14, faks: (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu\_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi 11-uy, Tel: (+99865 ) 221-29-14, faks: (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu\_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ №\_\_\_ sonli reestr bayonnomasi.

**H.T.Artikova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d., professor

**A.M.Qobilov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

**A.E.Xolliyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda global iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlikning buzilishi, yer osti suv zaxiralarning kamayishi hamda mavjud zaxiralarning ifloslanish sharoitida aholini oqsilli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda, suv havzalarini toza saqlash, sanoat va maishiy oqova suvlar bilan ifloslanishning oldini olish, gidrobiontlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, bioxilma-xilligini saqlash va yashashi uchun qulay ekologik muhit yaratish hamda zamonaviy usullar orqali baliq mahsuldorligini oshirish va oqsilga boy mahsulotlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Suv havzalaridagi istiqbolli gidrobiont turlarini aniqlash, ularni sun'iy ko'paytirish yo'li bilan suv havzalaridagi nafaqat biologik xilma-xillikni saqlab qolish, balki suvning gidrokimyoviy holatini yaxshilash, baliq mahsuldorligini oshirish orqali aholiga oqsilga boy, ekologik toza oziq-ovqat manbalarini yetkazib berish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Jahonda tabiiy va inson ta'siriga moyil suv havzalari holatini monitoring qilish, ulardagi gidrobiontlar ekosistemasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, istiqbolli turlarini ajratish, ko'paytirish va yangi turlarni kashf etish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, lokal hududlarda joylashgan ichki suv havzalarining gidrologik va gidrokimyoviy holatini tahlil qilish, gidrobiontlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda suv havzalarini fitoremedatsion usulda tozalash, istiqbolli turlarini ko'paytirishning ekologik - samarador usullarini ishlab chiqish, baliq mahsuldorligini biotexnologik asosda oshirish, suv tanqis sharoitlarda sug'orish sistemasi uchun tozalangan suvlardan qayta foydalanish imkoniyatlarini keng joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirda respublikamizda suv havzalarining holatini monitoring qilish, bioresurslarini muhofazalash va fitoplanktonlar biomassasi orqali baliqchilik tarmog'ini takomillashtirish, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini joriy etish, mavjud havzalar samaradorligini oshirishda biologik tozalangan suvlardan foydalanish orqali muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> ".....ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bu borada olimlar tomonidan turli tabiiy-geografik zonalarda joylashgan suv havzalarida baliq turlarini yetishtirish usullari ishlab chiqilib, yaylovlarda baliq ovlashda baliq populyatsiyasi holatini monitoring qilish usullarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli qarori asosida 2022-yil 13-yanvardagi "Baliqchilik tarmog'ini

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" gi PF-60-son Qarori

yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-83-son, 2023-yil 18-avgustdagi “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-281-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fitoplanktonlarning biotexnologiyada tutgan o‘rni va ularning istiqbolli turlarini N. Kirpenko, T. Leontiyev (2019); zamonaviy sanoat biotexnologiyasida hujayralar orqali ozuqalar yaratish, rekombinant oqsillar, biofarmatsevtika va vaksinalarni ishlab chiqarish bo‘yicha yangi tushunchalar Maria J. (2023) va dengiz fitoplanktonlari, tropik chuchuk suv havzalarida yuqori minerallasgan suvlarda fitoplanktonlarning soni, baliq va baliqchilik zanjirini o‘zaro bog‘liqligini T.N.Burkova (2012); fotorepseptorlar orqali fitoplanktonlarni yetishtirish, hujayralar sonining tezroq ko‘payishiga va shunga mos ravishda quruq biomassaning yuqori hosildorligiga va hujayralarda pigmentlarning yuqori to‘planishini D. Kozhan (2020); va boshqa xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida ayrim jihatlari asoslangan.

MDH mamlakatlarida fitoplanktonlarning akvakulturadagi o‘rni va ularning biotexnologiyasi va baliqchilik xo‘jaliklari havzalarida kislorod rejimiga ta‘sirini R.A.Rudenko va boshqalar (2021); dengiz fitoplanktonlarining indikatorlik xususiyatlari va ekologiyada tutgan o‘rnini T.V.Drozdenko (2018); baliqchilikka ixtisoslashgan hovuzlar fitoplankton va zooplankton jamoalarining shakllanish xususiyatlari, ularning soni va sifat ko‘rsatkichlarini, baliqlarning oziqlanish darajasi va texnologiyasi G.G. Myasnikov (2020); baliq ekish usulini qo‘llashning afzalliklarini o‘rganish maqsadida suv havzalarida o‘simliklar yetishtirilgandan keyin kislorod konsentratsiyasining oshish darajasi aniqlangan bo‘lib, hovuzlarda plankton va bentos organizmlarning soni va biomassasining ko‘payishini H.F. Farxan Yasin (2023) kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Respublikamiz miqyosida Farg‘ona vodiysidagi kollektor-zovur tizimining tuproqdagi tuzlarni qayta taqsimlanishidagi roli va suv havzalarida baliqchilikni rivojlantirish istiqbollari U.B.Mirzayev va boshqalar (2022), fitoplankton hamda makrofitlarni o‘rganish va ularni baliqchilikda qo‘llash biotexnologiyasini A.M.Qobilov (2020), baliqchilik xo‘jaliklari algoflorasi va uning ahamiyatini Sh.Sh.Shernazarov (2021), ko‘l suvlaridagi fitoplanktonlar turlarini aniqlash va xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini S.B.Bo‘riyev, L.T.Yuldoshov va F.Q.Shodmonov (2022), kollektor suvlaridagi fitoplanktonlarni aniqlash va tarkibida fiziologik faol moddalarga boy bo‘lgan turlarni ko‘paytirish, biomassa olish va undan foydalanish bo‘yicha N.E. Rashidov (2020) qator tadqiqotlar olib borilganligi va O‘zbekiston mahalliy mikrosuvotlaridan baliq xo‘jaligini rivojlanishida foydalanish va

oziqabop fitoplanktonlarni ko'paytirishning ahamiyatini Sh. Y. Shernazarov (2020) va I.V.Safarovlar (2023) tadqiq qilganlar.

Ammo, adabiyotlardagi ushbu ma'lumotlar respublikamiz sharoitida zovurlarning hozirgi holati - gidrobiologiyasi, suvning kimyoviy tarkibiga bog'liq ravishda tuban suvo'tlarning rivojlanish bosqichlarini to'liq o'rganish bo'yicha yetarli darajada emas. Respublikamizning cho'l hududlarida, xususan Buxoro viloyati Dengizko'l zovurining yuqori, o'rta va quyi oqimi algoflorasini o'rganish natijasida fitoplanktonlarining yetakchi turlarini aniqlash va ulardan oqsilga boy bo'lgan turlarini zovur suvida ko'paytirib, o'simlikxo'r baliqlarga ozuqa sifatida qo'llashning biologik usullarini ishlab chiqish muhimdir. Suv tarkibidagi tuz miqdorini bioremediatsiya qilishga erishish hamda baliq mahsuldorligini oshirish uchun ozuqa sifatida qo'llash yo'llarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrasining "Buxoro viloyati ko'llarining gidrobiologik holatini o'rganish" (2021-2023) mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar ish rejasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Buxoro viloyati Dengizko'l zovuri suvliklarining algologik biomassasini aniqlash hamda ekologik – samarali turlarini ko'paytirish orqali baliq mahsuldorligini oshirish va suvdan qayta foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Dengizko'l zovurining yuqori, o'rta va quyi oqimlaridagi suv namunalari gidrokimyoviy tarkibini yil fasllari kesimida tahlil qilish hamda algofloraning tur takibini o'rganish;

Zovurda uchraydigan dominant turlar - *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* hujayralarini ajratib olish, laboratoriya sharoitida zovur suvlari va qo'shimcha oziqa muhitlarida ko'payishini qiyosiy taqqoslash;

Biologik faol moddalar va oqsilga boy suvo't turlarining baliqchilik hovuzlari va baliq mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash;

Suvo'tlar yordamida zovur suvlarining minerallik darajasini pasaytirish yo'li bilan suvni tozalash va uni qishloq xo'jaligi tarmoqlarida takroriy foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqish;

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Buxoro viloyati Dengizko'l zovuri hamda zovur suvlarida uchraydigan suvo'tlariga mansub *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* turlari hamda oq do'ngpeshona – *Hypophthalmichthys molitrix* Val. balig'i olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Buxoro viloyati Dengizko'l zovuri algoflorasi turlari, suvning gidrokimyoviy tarkibi, laboratoriya sharoitida ularni ko'paytirish orqali baliq mahsuldorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada bioremedatsion, cho'ktirish, filtirlash, biotexnologik, algologik, floristik, marshrutli, laboratoriya, biometrik variatsion va matematik- statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Buxoro viloyati Dengizko‘l zovurining yuqori, o‘rta va quyi oqim suvlari algoflorasining 5 ta bo‘lim, 10 ta sinf, 16 ta tartib, 35 ta oila, 75 ta turkumiga mansub jami 425 tur va 72 ta tur xillari aniqlangan;

Dengizko‘l zovuri suvlarining oqimlar bo‘yicha gidrokimyoviy tarkibi xloridlar miqdorida - yuqori 1,8 g/l, o‘rta 4,0 g/l va quyi 3,4 g/l da, sulfatlar miqdori kesimida esa yuqori 2,2 g/l, o‘rta 4,2 g/l va quyi 3,0 g/l da bo‘lishi asoslangan;

Zovurdagi dominant suvo‘tlari – *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* ajratib olingan va ular yordamida zovur suvning minerallasuvini pasaytirish darajasi baholangan;

baliqchilik hovuzlarida biologik faol moddalarga va oqsilga boy *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* suvo‘tlarini baliqlarga ozuqa sifatida qo‘llash orqali yuqori mahsuldorlikka erishish mumkinligi isbotlangan;

suv tanqis sharoitlarda fitoplanktonlarni zovur suvlarida ko‘paytirish orqali minerallik darajasini kamaytirish usuli ishlab chiqilgan va suvdan qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun takroriy foydalanish mumkinligi aniqlangan;

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

zovur suvlarining minerallasish darajasini pasaytirishda *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* suvo‘tlaridan foydalanishning samarali uslublari ishlab chiqilgan,

Dominant turdagi fitoplanktonlar laboratoriya va yarim ishlab chiqarish sharoitida ko‘paytirilib, o‘simlikxo‘r baliqlarga tabiiy oziqa sifatida foydalanishning samaradorligi isbotlangan;

*Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* suvo‘tlari zovur suvlarining minerallik darajasini pasaytirib baliq mahsuldorligini oshirishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy biotexnologik, algologik, floristik, marshrutli, laboratoriya, biometrik variatsion va matematik- statistik tahlil usullarini qo‘llash orqali olingan natijalar nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, qiyosiy tahlili, ilmiy tadqiqot natijalarining respublika, xalqaro ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamasi, yetakchi mahalliy ilmiy jurnallarda va xorijiy jurnallarda chop etilganligi, Buxoro viloyati Dengizko‘l zovurining algoflorasi qiyosiy o‘rganilganligi, fitoplanktonlarni o‘simlikxo‘r baliqlarga oziqa sifatida qo‘llash hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Buxoro viloyati Dengizko‘l zovuri suvo‘tlari turlarini qiyosiy tahlili amalga oshirilganligi, zovur suvlari tarkibida iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgan suvo‘ti turlari va ularni ko‘paytirishda ozuqa turlari to‘g‘risida ma‘lumot berilganligi, gidrobiologik holatini yaxshilash to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotlar olinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro viloyati Dengizko‘l zovuri suvo‘tlarini bioxilma-xilligini o‘rganish, ulardan samarali va maqsadli foydalanish orqali baliq mahsuldorligini oshirish va zovur suvlarining minerallik darajasini

tuban suvoʻtlari orqali kamaytirish, olingan biomassa ozuqa sifatida mineral moddalar miqdori kamaytirilgan zovur suvlari yordamida baliqchilik xoʻjaliklarida qoʻllanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyati Dengizkoʻl zovuridagi fitoplanktonlarni aniqlash, koʻpaytirish va baliqchilikda qoʻllash biotexnologiyasini ishlab chiqish boʻyicha olingan natijalar asosida:

Dengizkoʻl zovuri algoflorasining istiqbolli *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* turlarini koʻpaytirish meʼyorlari va baliqlarni oziqlantirish normalari boʻyicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Kogon tumani Fish farming” MChJ baliqchilik xoʻjaligi hovuzlarida amaliyotga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 06/26-05/903-sonli maʼlumotnomasi). Natijada oqsilga boy suvoʻtlar Oq doʻngpeshona – *Hypophthalmichthys molitrix* Val. baligʻining mahsuldorligini 600-700 g dan 1,5-1,7 kg gacha oshirish imkonini bergan;

zovur suvlarini fitoplanktonlar orqali bioremedatsion usulda mineral moddalardan qayta tozalangan suvlardan qishloq xoʻjaligining sugʻorma dehqonchiligida foydalanish meʼyorlari “Qorakoʻl Kumush Kalava” agro klasteri yerlarida amaliyotga joriy qilingan (Oʻzbekiston Fermer dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 13-fevraldagi 01/03-287-sonli maʼlumotnomasi). Natijada olinayotgan gʻoʻza hosiliga nisbatan mahsuldorlik 8-11 % gacha oshirish bilan birgalikda suvdan qayta foydalanish hisobiga suv tanqisligi sharoitida suvning tejalishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 11 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 5 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va Dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyati zovur-drenaj suv tizimi va ulardagi fitoplankton hamda o‘txo‘r baliqlarning o‘rganilish darajasi”** deb nomlangan birinchi bobida zovur suvlarining paydo bo‘lish jarayoni, sug‘orma dehqonchilikda kollektor-zovur suvlaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari hamda kollektor-zovur suvlaridagi fitoplanktonlarni o‘rganishlardagi dunyo va O‘zbekiston doirasidagi tadqiqotlar keng tahlil qilingan.

Dunyo tajribalaridan ma‘lumki, yer osti va sizot suvlari sathini pasaytirish va sho‘r suvlarni chiqarib tashlash uchun ariq yoki kanal qazilgan bo‘lib, bu hozirgi kundagi zovur va kollektor tushunchalari bilan nomlanadi. Hozirgi kunda zovurlar sistemasidan nafaqat sho‘r suvlarni chiqarib tashlash balki, kommunal va qishloq xo‘jalik suvlari, turli zavod fabrikalarning chiqindi suvlari chiqarib yuboriladi. Lekin suvga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi natijasida zovur suvlaridan qayta foydalanish jarayonlari yo‘lga qo‘yildi. Zovur suvlari gidrokimyoviy tarkibi organik va anorganik elementlar bilan turli darajada ifloslangan bo‘lib, qayta foydalanish jarayonida qishloq xo‘jaligi sohalari bioekologiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatlarda dunyo va O‘zbekiston olimlari zovur suvlari gidrokimyoviy tarkibini tozalash orqali suvdan qayta foydalanish qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida foydalanishda eng samarali usul ekanligini isbotladilar.

Xususan, fototrofik mikroorganizmlardan (suvo‘tlar) intensiv foydalangan holda suvo‘tlarni tanlash mezonlari va ularni yetishtirish xususiyatlari, olingan suvo‘tlardan oziqa mahsulotlari, suvni tozalashda indikator va o‘g‘itlar ishlab chiqarishda va chorvachilik fermalari (go‘ng, axlat, chiqindi suv) chiqindilarini qayta ishlash rentabelligini oshirish uchun biogen elementlarni samarali olib tashlash va chorvachilik chiqindilarining organik tarkibiy qismlarini yo‘q qilish uchun foydalanish biotexnologiyasi Kozhan D. Kirpenko N., Leontiev T.Maltsev, Y., Maltseva, kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Fitoplanktonlar jamoasidan baliqchilik xo‘jaliklarida tabiiy oziqa sifatida foydalanish va baliq mahsuldorligiga suvo‘tlar oqsili ta‘sirining yuqoriligini Rudenko R.A., Tkacheva I.V. va boshqa olimlar tomonidan tajribalarda isbotlangan.

O‘zbekiston sharoitida Shernazarov Sh., Safarov I.V., Tashpulatov Y. Sh. va boshqa olimlar tomonidan baliqlarning o‘shishi va ko‘payish tezligiga hamda suvning indikatorlik indekslariga tuban suv o‘simliklarining ozuqaboplik darajasi hamda sonining ta‘siri yuqori darajada ta‘siri etishi o‘rganilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob‘yekti, uslublari va o‘tkazish sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Dengizko‘l zovurining yuqori, o‘rta va quyi oqimi suvlarining fizik-kimyoviy tarkibini o‘rganish davomida olib borilgan usullar keltirilgan.

Suvning fizik – kimyoviy holatining tahlili ikki turda olib borildi:

1. Dala sharoitida gidrokimyoviy tahlillar.
2. Laboratoriya sharoitida gidrokimyoviy tahlil.

Dala sharoitida suvning harorati, rangi, tiniqligi, loyqaligi va pH ko‘rsatkichlari aniqlandi. Havo harorati TSN -15 termometri bilan aniqlandi.

Suvning harorati Wt-1 raqamli termometr yordamida aniqlanib, haroratni aniqlash uchun termometr kamida 7-10 daqiqa namuna olish chuqurligida saqlanishi kerak. Suvning tiniqligi va chuqurligini aniqlash uchun Sekki diskidan foydalanib, uni diametri 20 sm bo'lgan oq plastinkani arqon bilan ulab, arqonga har 1 m uzunlikda belgi qo'yilib chuqurlikni o'lchash uchun ishlatdik. Plankton yig'ish ikki turdan ya'ni, sifat va miqdor namunalaridan iborat. Har ikkala holatda ham Apshteyn to'ri ishlatildi. Cho'ktirish va filtirlash (K. A. Guseva) usuli orqali fitoplanktonlarning miqdoriy ko'rsatgichlarini baholandi. Suv o'tlarining tez cho'kishiga yordam beradigan sentrifugalash usuli yordamida tirik holatdagi organizmlarni o'rganish foydalanildi.

Gidrokimyoviy tahlillar asosan laboratoriya sharoitida Buxoro davlat universitetining Biotexnologiya va ixtiologiya ilmiy laboratoriyasi hamda Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli ilmiy laboratoriyasida Y.Y.Lure va Alyokinning titrlash uslublari bo'yicha tahlil qilingan.

Fitoplanktonlarning miqdoriy uchrash soni (Starmax K. 1955) va tur va tur xillarini (Paukov A.G. 2018) aniqlashda turli aniqlagichlardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Dengizko‘l zovuri suvining fitoplankton tur tarkibi tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida Dengizko‘l zovurining yuqori, o‘rta va quyi oqimi suvliklari bo'yicha algologik va gidrokimyoviy tarkibining tadqiqot davrida olib borilgan tahlil natijalari keltirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar (2021-2023 yillar) gidrobiontlarning faollashish jarayonidan boshlanib, bahor, yoz, kuz mavsumlarining har oyida bir marta gidrobiologik namunalari yig'ish natijasida Buxoro viloyatidagi bir qancha mayda zovurlar suvlarini o'zida birlashtiradigan eng katta zovur Dengizko‘l zovuridan 1026 taga yaqin suvo‘tlari namunalari yig'ildi va jami 425 ta tur va tur xillari aniqlandi, ulardan ko'k-yashil suvo‘tlari 84 ta, dinofitlar 3 ta, diatomlar 174 ta, evglena suvo‘tlari 20 ta, yashil suvo‘tlari 141 ta. Tadqiqot olib borishda Dengizko‘l zovurining asosiy uchta oqimi qamrab olinib, suvo‘tlarning mavsumlar bo'yicha dinamikasi tavsifi alohida o'rganildi.

Buxoro viloyati Dengizko‘l zovuri Paralell ravishda Dengizko‘l ko‘liga quyiladi. Sho‘rariq va Kurak zovurlarining birlashishidan hosil bo'lgan. Zovur Buxoro viloyatining janubiy tomonida joylashgan bo'lib, shimoliy va sharqiy tomondan Shoxrud kanali va Buxoro-Chardjou temir yo'li bilan chegaralangan. Umumiy drenaj maydoni 3 ming gektar (2015y). Uzunligi 126,4 km, 1967 – yilda foydalanishga topshirilgan. 2016 - yilda “Kogon suv qurilish” tashkiloti tomonidan ta'mirlangan. Koordinatalari 39°45'37.34"N, 64°06'10.7"E.


Dengizko‘l zovurining yuqori oqimi Kogon tumanidan boshlanib, 30,1 km uzunlikdagi maydonda, Jondor tumani o‘rta oqimi 41,0 km uzunlikda, Qorako‘l tumani quyi oqimi 53,3 km uzunlikdagi maydonni egallagan. Zovurning eng sho‘rlangan va suv osti tuproqlari rekli bo'lgan hududi Buxoroning sharqiy Qorako‘l vohasiga to'g'ri keladi. Shu hudud doirasida eng yuqori harorat 46-49 °C ni tashkil etadi. Tadqiqot olib borilgan zovur suvlarining chuqurligi o'rtacha 1-1,5 dan 5 m. gacha yuzasining kengligi 25-40 m, tubining kengligi esa 1,5-3 m, ayrim joylarida 5 m gacha. Suvning tiniqligi 1 m chuqurlikda tubigacha, zovur chuqurligi

2-2,5 m gacha bo'lgan esa suvning tiniqligi 1 dan 1,5 m gacha. Suv oqimining tezligi 1 m<sup>3</sup>/c. Yozda suvning eng yuqori o'racha harorati kunduz kunlari 38-50°C, eng past harorat qishda +1,5 dan +2°C gacha kuzatilgan. Suvning minerallik darajasi 1,2 dan 3,4 – 4,2 g/l gacha bo'lgan. Suvning muhiti ishqorli, ya'ni pH 7,2-8,2 mm.

Dengizko'l zovurining yuqori oqimi suvliklarining chuqurligi o'rtacha 1-2 m ni, yozda 1,5-2 m ni va kuz oylarda 0,5-1m ni tashkil etib, suvo'tlaridan *xara*, *kladofora*, *spirogira* va *vosheriyalarni* ko'rsatish mumkin (1-rasm).

Bahorda asosan *Dactylococcopsis acicularis*, *Merismopedia glauca*, *M. punctata*, *Coelosphaerium kuetzingianum*, *Oscillatoria irrigua*, *O. tenuis*, *O. ornata*, *O. limosa*, *O. sancta*, *Phormidium ambiguum*, *Gloeocapsa tenax*; diatom suvo'tlaridan *Melosira granulata*, *M. varians*, *Cyclotella* uchrashi natijasida diatom va yashil suvo'tlarining dominantlik qilishi kuzatildi.

Yoz oylarida yig'ilgan suvo'tlari namunalarini tahlil qilish natijasida ko'k-yashil suvo'tlaridan *Dactylococcopsis acicularis*, *Merismopedia*, *Oscillatoria*; diatom suvo'tlaridan *Melosira*, *Cyclotella* *Strephanodiscu* *Diatoma* *Fragilaria* *Synedraulna*, *Achnanthe* *Mastogloia*; dinofitlardan *Peridinium* evglena suvo'tlaridan *Euglena* *Lepocinclis* *Phacus*; yashil suvo'tlaridan *Chlamydomonas*, *Pediastrum*, *Chlorella* *Ankistrodesmus*, *Scenedesmus*, *Enteromorpha*, *Ulothrix* *Chlorhormidium*, *Oedogonium*, *Cladophora*, *Cosmarium* *Spirogyra* *Mougeotia* *Zygnema* *turkumi* vakillari uchrashi aniqlangan.




**1-rasm Dengizko'l zovuri yuqori oqim suvliklarida uchragan suvo'tlarning mavsumiy o'zgarishi**

Kuzda asosan bentosga xos suvo'tlaridan *Cladophora*, *Spirogyra*, *Stigeoclonium*, *Ulothri*, *Oedogonium* uchraydi.

Qishda asosan sovuqsevar suvo'tlar vakillaridan *Euglena hemichromata*, *E. proxima*, *Phacus caudatus* var. *minor*, *Gloeocapsa turgida*, *Oscillatoria irrigua*, *O. tenuis*, *Phormidium ambiguum*, *Ph. foveolarum*, *Gloeocapsa amagma*, *Chlamydomonas sphagnicola*, *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa*, *Scenedesmus quadricauda*, *Enteromorpha intestinolis* va boshqalar uchraydi.

Dengizko'l zovurining o'rta oqim bosh qismida 2-2,5 m chuqurlikda, o'rta va quyi qismlarida 2,5-3 m ni tashkil etadi (2-rasm).



## 2-rasm Dengizko‘l zovuri o‘rta oqimidagi suvo‘tlarining mavsumiy o‘zgarishi

Dengizko‘l zovurining quyi oqim suvining chuqurligi bosh qismida 2,5-3 m chuqurlikda, o‘rta va quyi qismlarida 3-4 m va undan yuqori chuqurliklarni tashkil etadi. Suvo‘tlarini fasllar bo‘yicha o‘rganganimizda jami 345 taga yaqin namunalar olinib, tur va tur xillari aniqlab borildi va ulardan ko‘k- yashil suvo‘tlari 75 ta, diatom suvo‘tlari 131 ta, dinofit suvo‘tlari 3 ta, evglena suvo‘tlari 21 ta va yashil suvo‘tlari 115 taga yaqin vakillari o‘rganildi.

Dissertatsiyaning **“Fitoplanktonlarni zovur suvlarida ko‘paytirish biotexnologiyasi va ularni baliqchilik hamda qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiqot olib borilgan ob‘yekt suvliklarining gidrokimyoviy tarkibi, harorati, algoflorasini o‘rganish orqali dominant tur vakillarini turli oziqa muhitlarida ko‘paytirish va baliq mahsuldorligini oshirish usullari keltirilgan.

Korxonalaridan chiqadigan oqova suvlarining tarkibida ko‘p miqdorda organik, mineral va turli xil zaharli moddalar hamda kasallik tarqatuvchi patogen mikroorganizmlarning ko‘p miqdorda bo‘lishi va ularni suv havzalariga tashlanishi natijasida gidrobiologik va ekologik muvozanatining buzilishiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ifloslangan suvlarni qayta ishlatilishi esa tuproqlarning sho‘rlanish darajasini yildan-yilga oshirib, hozirda bu ko‘rsatgich 80-85% ni tashkil etadi. Bunday suvliklarga misol sifatida Buxoro viloyatidagi Dengizko‘l zovuri (Xalq orasida “Vanushka”) ni keltirish mumkin. Zovurda Qorovulbozor, Kogon, Buxoro, Qorako‘l va Olot shaharlaridan chiqadigan oqova suvlarni to‘planib, Dengizko‘l suv omboriga quyiladi. 2021-2023 yillarda Dengizko‘l zovuri suvining gidrokimyoviy tarkibi o‘rganilishi natijasida xloridlarning o‘rtacha miqdori 3650,1– 3998,9 mg/l, sulfatlarni 3004,8 – 4034,5 mg/l yuqori konsentratsiyada bo‘lishi, suvlarning parlanishi hisobiga mavsumiy ekanligi, sho‘rlanish darajasi xloridlar va sulfatlar miqdoriga bog‘liqligi isbotlandi.


2021-2023 yillarning mart-oktabr oylarida Dengizko‘l suvliklarining barcha oqimlaridan olib kelingan suvlar laboratoriyada nazorat variant va tajriba variantiga ajratildi. Aniqlagich kitoblar orqali barcha namunalar tekshirilishi natijasida zovurlar suvlarida fitoplanktonlarning 20 ta tur va tur xillari eng ko‘p tarqalganligi aniqlandi. Ulardan *Microcystis aeruginosa*, *f.flos-aquae*, *Nodularia harveyana*, *N.spumigena*, *Oscillatoria limosa*, *O.princeps*, *O.tenuis*,

*O.lemmermannii*, *O.shoronichinii* – ko‘k-yashil suvo‘tlariga; *Synedra ulna*, *Cocconeis pediculus*, *C.placentula*, *Navicula cryptocephala*, *Nitzschia hungarica*, *N.sigmoidea* - diatom suvo‘tlariga; *Euglena proxima*, *Phacus caudatus var. minor*, *Ph.pleuronectes* – evglena suvo‘talariga va *Chlorella vulgaris*, *Ch.pyrenoidosa*, *Scenedesmus obliquus*, *S.quadricauda*, *Cosmarium bioculatum*, *C. granatum* - yashil suvo‘tlariga mansubdir. Ulardan *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* eng istiqbolli va oqsilga boy, har qanday muhitga tez moslasha oladigan barcha mavsumda uchraydigan tur sifatida Dengizko‘l zovurining dominant tur vakillari hisoblanadi. Bu suvo‘ti turlari azot, xlor, fosforni yaxshi va tez o‘zlashtirganligi sababli bunday muhitdagi suvlarda tez ko‘payadi. Suvo‘tlarni laboratoriya sharoitida ko‘paytirishda zovur suvi va “Tamiya” oziqa muhitidan va yarim ishlab chiqarish sharoitida ko‘paytirish uchun zovur suvi va qo‘y go‘ngidan iborat ozuqa muhitlari tanlab olindi. Laboratoriya sharoitida 10 litrli plastmassa idishlardan va yarim ishlab chiqarish sharoitida ko‘paytirish uchun 200 litrli shisha idishlari va 0,3 -0, 45 ga li baliqchilik hovuzlaridan foydalanildi.

Tadqiqotlarimizning keyingi izlanishlari mikroskopik suvo‘tlaridan *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* ni zovur suvlarida ko‘paytirish va zovur suvlarini algologik usul bilan tozalashdan iborat bo‘lib, suvo‘tlarni laboratoriya sharoitida ko‘paytirishda “Tamiya” oziqa muhitidan va yarim ishlab chiqarish sharoitida ko‘paytirish uchun qo‘y go‘ngidan foydalandik. Qoramol go‘ngiga nisbatan qo‘y go‘ngida fitoplanktonlar uchun zaruriy oziqalar miqdori azot – 0,15 g/l ga, fosfatlar – 0,18 g/l ga ko‘p ekanligi ma‘lum. 1 – tajriba Buxoro viloyatidagi Dengizko‘l zovur suvlaridan algologik holatda ajratib olingan mikroskopik yashil suvo‘tlaridan *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* larni “Tamiya” oziqaviy muhitida 8 litr suvga mo‘ljallab kerakli tuzlar o‘lchab olindi va ko‘paytirish uchun tanlab olingan suspenzion kulturadan 1 litr aralastirildi. (4- **A,B,S,D rasmlar**). Zovurning barcha oqim suvlarida hech qanday ozuqa muhitisiz 10 litrli idishlarga 1 ml suvda 2,5 mln saqlagan 8 litrli kultura tayyorlandi va tajriba 6 kun olib borildi. Suvo‘tlar tezroq ko‘payib ozuqani o‘zlashtirishi uchun kun davomida 10-15 marta aralastirilib, yorug‘lik yaxshi tushib turadigan joyga joylashtirildi.

Tajribalar 6 kun davom etdi. Oltinchi kundan keyin hujayralarning o‘shish va ko‘payish tezligi kamaydi. Bunga suv tarkibida “Tamiya” oziqa muhiti kamayganligi sabab bo‘ldi. Bu suv tarkibida boshqa suvo‘tlarning turlari borligi aniqlandi. Ammo bu suvga ekilgan (2,5 huj/mln/ml) oziqa muhiti yashil suvo‘tlari uchun mo‘ljallab solinganligi sababli boshqa suvo‘tlarning o‘shishiga to‘sqinlik qildi.


6 - kunga kelib “Tamiya” oziq muhitida *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* hujayralar soni 35,4/33,1/34,2 mln/ml ga, ho‘l biomassa esa 0,012/0,009/0,009 g/l ni va zovur suvlari yuqori oqimda hujayralar soni 20,1/24,3/19,8 mln/ml ga, ho‘l biomassa esa 0,01/0,012/0,01 g/l ni, o‘rta oqimda hujayralar soni 25,6/24,6/25,0 mln/ml ga, ho‘l biomassa 0,3/0,25/0,3 g/l ni quyi oqimda hujayralar soni 21,8/16,8/20,1 mln/ml ga, ho‘l biomassa 0,22/0,2/0,2 g/l ni tashkil qildi.



**4-rasm Laboratoriya sharoitida Dengizko'l zovuri suvi va "Tamiya" oziq muhiti**da fitoplanktonlarning kunlik o'sish miqdori (2021-yil yoz mavsumi)  
*a) Nazorat varianti; b) yuqori oqim; s) o'rta oqim; d) quyi oqim*

Tajriba davomida Dengizko'l zovurining o'rta oqim suvida o'sayotgan *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* hujayralar soni va biomassa jihatdan o'zgarishlarida yuqori natijaga erishildi.


2 - tajribada *Chlorella vulgaris*, *Chlorella pyrenoidosa* va *Scenedesmus obliquus* suvo'tlarini jadal o'sib rivojlanishi uchun go'ng sharbatidan foydalanib, 5,5 mln/ml dan hujayralari ekildi. Qo'y go'ngi aralastirilgan tajribalar 200 litrli shisha idishlarda 3/6/9 g/l sharbat solib ko'paytirildi (5,6,7 - rasmlar). Qo'y go'ngi zovurning barcha oqim suvlariga aralastirilishidan oldin boshqa go'ng sharbatlarining organik va anorganik tarkibi jihatidan qiyosiy tahlillar olib borildi. Asosan, qoramol va tovuq go'ngining kimyoviy tarkibi jihatidan qo'y go'ngiga yaqin tursada, iqtisodiy samaradorlik jihatidan qo'y go'ngi tanlov sifatida qabul qilindi,.



**5-rasm. Laboratoriya sharoitida Dengizko‘l zovuri yuqori oqim kesimida qo‘y go‘ngi sharbati aralashmasida fitoplanktonlarning kunlik o‘shish miqdori (2021-yil yoz mavsumi)**


Tajriba variantining ikkinchisida 6 g/l qo‘y go‘ngi aralashirilgan yuqori oqim suvida *Chlorella vulgaris* ning hujayralar soni 40,0 mln/ml, *Chlorella pyrenoidosa* ning hujayralar soni 38,6 mln/ml, va *Scenedesmus obliquus* ning hujayralar soni 38,0 mln/ml, gacha, ho‘l biomassasi esa 0,4 g/l boshqa variantlarga nisbatan yuqori biomassa olinganligi ma‘lum bo‘ldi.

Zovurning o‘rta oqim suviga qo‘shilgan go‘ng sharbati suvo‘tlar hujayralarining ko‘payishini tezlashtirdi.



**6-rasm Dengizko‘l zovuri o‘rta oqim suvi va qo‘y go‘ngi sharbati aralashmasida fitoplanktonlarning kunlik o‘shish miqdori (2021-yil yoz mavsumi)**

Tajriba variantining 6 g/l qo‘y go‘ngi aralashirilgan o‘rta oqim suvida *Chlorella vulgaris* ning hujayralar soni 41,3 mln/ml, *Chlorella pyrenoidosa* ning hujayralar soni 40,3 mln/ml, va *Scenedesmus obliquus* ning hujayralar soni 39,0 mln/ml, gacha, ho‘l biomassasi esa o‘rtacha 0,4 g/l ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bu variantda *Chlorella vulgaris* ning biomassasi zovur suviga qo‘shimcha tarzda suv quyadigan zovurlar va kommunal xo‘jalik suvlari tarkibidagi gidrokimyoviy biriklamaning yuqori ekanligi sabab bo‘ldi.



7- rasm Dengizko'1 zovuri quyi oqim suvi va qo'y go'ngi sharbati aralashmasida fitoplanktonlarning kunlik o'sish miqdori (2021-yil yoz mavsumi)

